Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta'minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o'g'li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendentsiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	



Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rne.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvinining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	



MOLIYAVIY MARKETING VA FOND BOZORI: QANDAY QILIB INVESTORLAR ISHONCHINI YO‘NALTIRISH MUMKIN?

Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna

O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi magistri

nozimamirmahmudova@gmail.com

ORCID: 0009-0006-9170-6480

Annotatsiya: Mazkur maqolada fond bozori va moliyaviy marketingning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy investorlar faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmay, balki kompaniyalar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy marketing strategiyalariga ham katta e‘tibor qaratmoqdalar. Maqolada moliyaviy marketingning investorlar psixologiyasiga ta’siri, bozor tendensiyalarini aniqlash va har bir investor segmentiga moslashtirilgan kommunikatsiya strategiyalarining roli muhokama qilinadi. 2008–yilgi global moliyaviy inqiroz va ESG investitsiyalari misollarida ko‘rinib turibdiki, moliyaviy marketing kompaniyalar uchun investorlar ishonchini tiklash va ularni o‘z aksiyalariga sarmoya kiritishga jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar, moliyaviy marketingning samaradorligini yanada oshirish imkonini bermoqda. Maqola investorlar qarorlarining psixologik omillarini tahlil qiladi hamda moliyaviy marketing orqali investorlar ishonchini shakllantirish va mustahkamlash yo‘llarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: fond bozori, moliyaviy marketing, trendlar, ESG, yashil iqtisodiyot, investitsiya strategiyalari, raqamli moliya.

Abstract: This article analyzes the significance of the stock market and financial marketing. Modern investors are not only focused on financial indicators but also pay considerable attention to the financial marketing strategies presented by companies. The article discusses the impact of financial marketing on investor psychology, the identification of market trends, and the role of communication strategies tailored to each investor segment. Historical examples such as the 2008 global financial crisis and ESG investments demonstrate that financial marketing plays a crucial role in rebuilding investor confidence and attracting them to invest in company shares. Modern technologies, including social media and online platforms, significantly enhance the effectiveness of financial marketing. The article examines the psychological factors influencing investor decisions and explores ways to form and strengthen trust through financial marketing.

Key words: stock market, financial marketing, trends, ESG, green economy, investment strategies, digital finance.

Аннотация: В данной статье анализируется значение фондового рынка и финансового маркетинга. Современные инвесторы не ограничиваются только финансовыми показателями, но также уделяют большое внимание стратегиям финансового маркетинга, представленным компаниями. В статье рассматривается влияние финансового маркетинга на психологию инвесторов, выявление рыночных трендов и роль коммуникационных стратегий, адаптированных для каждого сегмента инвесторов. Примеры, такие как глобальный финансовый кризис 2008 года и инвестиции ESG, показывают, что финансовый маркетинг играет важную роль в восстановлении доверия инвесторов и привлечении их к инвестициям в акции компании. Современные технологии, включая социальные сети и онлайн-платформы, значительно повышают эффективность финансового маркетинга. Статья анализирует психологические факторы, влияющие на решения инвесторов, и исследует способы формирования и укрепления доверия через финансовый маркетинг.

Ключевые слова: фондовый рынок, финансовый маркетинг, тренды, ESG, зеленая экономика, инвестиционные стратегии, цифровые финансы.

KIRISH

Bugungi kunda moliyaviy marketing va fond bozori o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Moliyaviy marketing investorlarni jalb qilish, ularning ishonchini qozonish va ularni uzoq muddatli sarmoyaga undashda muhim rol o‘ynaydi. Fond bozorining rivojlanishi va samarali ishlashi nafaqat sarmoyadorlarni jalb qilishda, balki ularning investitsion qarorlarini qabul qilishda ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayonni amalga oshirishda moliyaviy marketingning o‘rni muhimdir, chunki u bozorda yangi investitsiya imkoniyatlarini, xavfsiz va barqaror sarmoya variantlarini taqdim etadi. Investorlar o‘z sarmoyalarini joylashtirishda ko‘pincha xatarlarni, rentabellikni va uzoq muddatli foyda olish imkoniyatlarini hisobga oladilar. Shu sababli, moliyaviy marketingning to‘g‘ri strategiyalari investorlar ishonchini qozonish va ularni fond bozorida faol ishtirok etishga undashda muhim vosita hisoblanadi.



Moliyaviy marketingning rivojlanishi bilan birga, yangi yondashuvlar va texnologiyalar ham investitsiyalarga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi ilg'or texnologiyalar investorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishga, shaffoflikni ta'minlashga va investitsion faoliyatni samarali boshqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, shaffoflik va yuqori darajadagi axborot oqimi investorlar ishonchini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy marketing va fond bozorida ishonchni mustahkamlash kompaniyalar hamda investorlar o'rtasida uzluksiz va samarali muloqotning yo'lga qo'yilishiga ko'maklashadi. Bu jarayon investitsiya qarorlarini qabul qilishda, ishonch muhitini shakllantirishda va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – moliyaviy marketing vositasida fond bozorida investorlar ishonchini qanday yo'naltirish mumkinligini tahlil qilishdan iborat. Maqolada moliyaviy marketingning fond bozoridagi investitsiya qarorlariga ta'siri ko'rib chiqilib, investorlarni jalb qilish va ularning ishonchini qozonish uchun qanday strategiyalarni qo'llash lozimligi muhokama qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston fond bozori misolida investorlar ishonchini yo'naltirishning amaliy usullari va mavjud muammolarni tahlil qilishga qaratilgan tadqiqot taqdim etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy marketing va fond bozori bo'yicha xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar investorlar ishonchini oshirish va ularni uzoq muddatli investitsiyalarga jalb qilish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Philip Kotler (2012–yil) *“Marketing Management”* asarida marketingning asosiy prinsiplari hamda moliyaviy marketingning zamonaviy tendensiyalari haqida fikr yuritadi. George Serafeim (2019–yil) *“Corporate Sustainability and Financial Performance”* nomli maqolasida esa ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari va moliyaviy marketingning kompaniyalar faoliyatida qanday qo'llanilishi haqida tahlil bergan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar, xususan, Zulfiya G'ofurova (2020–yil) va Jahongir Abduqahhorov (2019–yil) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa O'zbekiston fond bozorida investorlar ishonchini oshirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va bozorda barqarorlikni ta'minlash masalalari bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kvalitatif metodlar yordamida fond bozorida investorlar ishonchini oshirishga qaratilgan yondashuvlar o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston fond bozoridagi amaliy holatlar asosida investitsiyalarga nisbatan ishonchni qanday kuchaytirish mumkinligi va bu jarayonda moliyaviy marketingning o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqotda *case study* (amaliy holatlarni tahlil qilish) usuli qo'llanilib, muvaffaqiyatli investitsion loyihalar va marketing strategiyalarining natijaviy ta'siri ko'rib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy marketing fond bozorida kompaniyalar uchun investorlar ishonchini shakllantirishda va sarmoya jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy iqtisodiyotda investorlar faqat moliyaviy ko'rsatkichlar yoki kompaniyaning balans varaqalariga qarab qaror qabul qilmaydilar. Bugungi kunda ular kompaniyaning o'zini qanday taqdim etayotgani, uning brendi va kommunikatsiya uslublariga katta e'tibor qaratmoqdalar. Shuningdek, investorlar psixologiyasi va bozor tendensiyalarini to'g'ri anglash moliyaviy marketing strategiyalarining samaradorligini oshiradi.

Moliyaviy marketingning asosiy maqsadi – investorlar qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir. Bu ularning kompaniyaga bo'lgan ishonchini tiklash, kompaniya haqida aniq, shaffof va ishonchli axborot taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Investorlar o'z investitsiyalarini xavfsiz va foydali deb ko'rishlari kerak. Agar kompaniya o'z strategiyasini va moliyaviy holatini aniq hamda to'liq tarzda taqdim etsa, investorlar uning shaffofligi va ishonchliligiga ishonadilar.

Muvaffaqiyatli moliyaviy marketing strategiyalari investorlarning psixologiyasini chuqur tushunishga asoslanadi. Masalan, investorlar ko'pincha “qo'rquv” va “ishtaha” psixologiyasiga ega bo'ladi – ya'ni ular yuqori daromad olishga intilishadi, biroq xatarlardan qochishga harakat qilishadi. Shu sababli, moliyaviy marketingda xavfsizlik va barqarorlik haqida aniq va ravshan axborot berish zarur.

Bozor tendensiyalari va yangiliklar moliyaviy marketingni shakllantiruvchi asosiy omillardandir. Masalan, ESG (Atrof-muhit, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) investitsiyalari so'nggi yillarda katta ahamiyat kasb etmoqda. ESG tamoyillari asosida investitsiyalarni jalb qilish investorlarning ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqarorlikka



bo'lgan qiziqishiga tayangan. Yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritish kompaniyaning nafaqat moliyaviy natijalarini yaxshilaydi, balki uning brendini ham kuchaytiradi.

ESG investitsiyalarini jalb qilayotgan kompaniyalar o'zlarini nafaqat foyda manbai, balki jamiyat va atrof-muhit uchun foydali tashkilotlar sifatida ko'rsatadilar. Masalan, Apple kompaniyasining 2030–yilgacha uglerod neytraliga erishish maqsadi uning aksiyalariga bo'lgan investorlar qiziqishini oshirdi, chunki bu kompaniyaning ekologik mas'uliyatini aks ettiradi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamli moliya va ijtimoiy tarmoqlar, moliyaviy marketing strategiyalarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Internet orqali kompaniyalar investorlar bilan real vaqt rejimida aloqa o'rnatib, yangiliklarni tezkor tarqatishi va interaktiv maslahatlar berishi mumkin. Masalan, Tesla kompaniyasining rahbari Elon Musk tomonidan Twitter (hozirgi X) platformasida olib borilgan faol kommunikatsiya kompaniya aksiyalari narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Musk o'zining ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlari orqali kompaniya haqida bevosita investorlar bilan muloqotda bo'lgan va bu holat aksiyalar qimmatlashuviga olib kelgan.

Moliyaviy marketing strategiyalarining ahamiyati faqat barqarorlik davrida emas, balki inqiroz va noaniqlik sharoitida ham namoyon bo'ladi. 2008–yilgi global moliyaviy inqiroz investorlar ishonchini sezilarli darajada susaytirdi. Shu sababli, moliyaviy institutlar va yirik kompaniyalar o'z investorlar bilan aloqalarini qayta ko'rib chiqib, aniq va shaffof kommunikatsiyalarni joriy etdilar. Masalan, Bank of America va JPMorgan Chase investorlar bilan doimiy ochiq muloqot o'rnatib, moliyaviy holatni tiklash uchun ko'rilgan chora-tadbirlarni izchil tushuntirib bordilar.

Yana bir muhim omil – inqiroz davrida xavfsizlik va barqarorlik haqida ishonchli xabarlar yetkazish zaruratidir. Amazon kompaniyasi, COVID–19 pandemiyasi davrida, o'z salohiyatini va istiqbollarini ko'rsatishga qaratilgan kommunikatsiya strategiyalarini amalga oshirdi. Bu kompaniyaga bozor noaniqligi sharoitida ham investorlar ishonchini saqlab qolishda yordam berdi.

Texnologik rivojlanish moliyaviy marketingda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli marketing va onlayn platformalar kompaniyalarga investorlar bilan samarali aloqada bo'lish uchun zamonaviy vositalar taqdim etmoqda. Onlayn webinarlar, virtual konferensiyalar va boshqa raqamli usullar orqali kompaniyalar o'z moliyaviy holatini shaffof tarzda taqdim etish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa investorlar uchun tezroq va aniqroq qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, Twitter, LinkedIn va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali kompaniyalar bevosita muloqotni davom ettirishlari mumkin. Investorlar kompaniya faoliyatiga bevosita aloqadorlik hissini boshdan kechiradi, bu esa ularning sarmoya kiritish qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli moliyaviy marketing kompaniyalar uchun global auditoriyani jalb qilishda muhim vositaga aylanmoqda.

Moliyaviy marketing strategiyalari kompaniyalar uchun investorlar bilan samarali muloqot qilish va ularning ishonchini mustahkamlashda muhim vositadir. Investorlarning psixologiyasini anglash, bozor tendensiyalarini aniqlash va innovatsion kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali kompaniyalar o'z aksiyalariga sarmoya jalb qilishda muvaffaqiyat qozonishlari mumkin.

ESG tamoyillari, yashil iqtisodiyot va raqamli moliya kabi yo'nalishlar investorlar e'tiborini jalb etishda yetakchi o'rin tutmoqda. Shu bilan birga, inqiroz va noaniqlik sharoitida ham moliyaviy marketing kompaniyalarga investorlar ishonchini saqlab qolish va bozorda raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy marketing fond bozori va investorlar bilan muvaffaqiyatli aloqalarni o'rnatishda katta ahamiyatga ega. Kompaniyalar faqat moliyaviy ko'rsatkichlar va balans varaqlarini taqdim etish orqali investorlarning ishonchini qozona olmaydi. Bugungi kunda investorlar, ayniqsa yosh avlod vakillari, nafaqat moliyaviy foydaga, balki kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyati, ekologik barqarorligi va boshqaruv tizimi kabi omillarga ham katta e'tibor qaratmoqdalar. Shunday qilib, ESG (Atrof-muhit, Ijtimoiy va Boshqaruv) investitsiyalari kompaniyaning moliyaviy holatini emas, balki uning ijtimoiy va ekologik javobgarligini ham ifodalaydi, bu esa investorlar ishonchini oshiradi.

Zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli moliya platformalarining rivojlanishi moliyaviy marketingda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kompaniyalar o'zlarini va moliyaviy holatini aniq, shaffof va izchil tarzda taqdim etishlari zarur. Investorlar, ayniqsa, inqiroz va noaniqlik davrlarida kompaniyaning barqarorligini va xavfsizligini tasdiqlovchi ishonchli va aniq xabarlarini kutishadi. Masalan, 2008–yilgi global moliyaviy inqiroz davrida shaffof va aniq kommunikatsiya orqali ko'plab kompaniyalar investorlar ishonchini tiklashga muvaffaq bo'lishdi. Bu esa ularning aksiyalariga bo'lgan talabni oshirdi.

Shuningdek, moliyaviy marketing strategiyalarining samaradorligi investorlar psixologiyasini chuqur anglashga bog'liq. Investorlar qarorlarida nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki xavfsizlik, istiqbol va kompaniya obro'siga ham e'tibor qaratadilar. Shu sababli kompaniyalar o'z marketing strategiyalarini investor ehtiyojlariga



mos holda ishlab chiqishlari lozim. Bu nafaqat investorlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishga, balki kompaniya brendini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Kompaniyalar moliyaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqishda ESG tamoyillarini markaziy o'ringa qo'yishlari kerak. Hozirgi kunda investorlar nafaqat daromad keltiruvchi loyihalarni, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli tashabbuslarni ham qadrlashmoqda. Kompaniyaning yashil iqtisodiyotga bo'lgan sadoqati, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy harakatlari, shuningdek, ijtimoiy loyihalardagi faol ishtiroki uning aksiyalariga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi. Bu esa moliyaviy marketingda ESG tamoyillarini strategik vosita sifatida qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Raqamli marketing imkoniyatlarining kengayishi kompaniyalar uchun investorlar bilan doimiy va faol muloqot qilishga keng yo'l ochadi. Ijtimoiy tarmoqlar, xususan, Twitter, LinkedIn va Facebook orqali kompaniya o'zining moliyaviy holati, strategik yo'nalishlari va rivojlanish istiqbollari haqida tezkor va ochiq axborot bera oladi. Bu esa investorlar bilan ishonchli aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, onlayn konferensiyalar, webinarlar va interaktiv sessiyalar orqali kompaniya bevosita muloqotga kirishib, investorlar savollariga javob berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Investorlar kompaniyadan to'liq, ishonchli va aniqlikka asoslangan axborot kutishadi. Shu bois kompaniyalar o'z moliyaviy hisobotlarini muntazam ravishda e'lon qilishi, ularni tushunarli, shaffof va batafsil tarzda taqdim etishi lozim. Moliyaviy holat, mavjud va kelajakdagi risklar, investitsiya imkoniyatlari haqidagi ochiq ma'lumotlar investorlar orasida ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida sarmoyalarni jalb qilish jarayonini osonlashtiradi va kompaniyaning bozordagi obro'sini oshiradi.

Noaniqlik va inqiroz davrlarida kompaniyalar moliyaviy marketing strategiyalarini xavfsizlik, barqarorlik va ishonchga asoslangan yondashuvlar bilan boyitishi kerak. Bunday sharoitda kompaniya tomonidan aniq va ravshan kommunikatsiya olib borilishi investorlarning potentsial xavflarni to'g'ri baholashiga yordam beradi. Strategik rejalarni ochiq e'lon qilish, muqobil ssenariylar asosida risklarni boshqarish va istiqbollarga oid optimistik prognozlar berish kompaniyaning investorlar oldidagi pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Investorlar psixologiyasini chuqur o'rganish kompaniyalar uchun o'z marketing strategiyalarini individual yondashuvga asoslash imkonini beradi. Xavfsizlik va barqarorlikni afzal ko'ruvchi investorlar uchun uzoq muddatli sarmoya imkoniyatlarini namoyish etish, yuqori riskni tanlaydigan investorlar uchun esa yuqori rentabellikni ta'minlovchi strategiyalarni ko'rsatish zarur. Segmentatsiyalangan marketing yondashuvi orqali kompaniya turli xil investorlar guruhlariga aniq va moslashtirilgan takliflarni taqdim eta oladi, bu esa ularning sonini oshirishga xizmat qiladi.

Yosh avlod investorlariga qaratilgan marketing strategiyalari alohida e'tiborga loyiq. Bugungi kunda yosh investorlar orasida ESG mezonlari va yashil iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Kompaniyalar bu auditoriyaga mos, vizual jihatdan jozibali va axborotga boy kontent yaratishi, ijtimoiy tarmoqlarda faol kontent strategiyasini olib borishi zarur. Yosh avlod bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish brendga bo'lgan sodiqlikni oshiradi va kompaniya aksiyalariga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy marketing investorlar bilan mustahkam aloqalarni shakllantirishda, ularning ishonchini mustahkamlashda va kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Kompaniyalar ESG tamoyillariga qat'iy rioya qilish, raqamli marketingni rivojlantirish, shaffoflikni ta'minlash va investorlar psixologiyasini chuqur tahlil qilish orqali o'z sarmoya jalb etish salohiyatini sezilarli darajada kuchaytiradi. Ayniqsa, inqiroz va noaniqlik sharoitida to'g'ri tashkil etilgan kommunikatsiya strategiyalari kompaniyaning bozor sharoitida barqarorligini saqlab qolishga, aksiyalarning qiymatini oshirishga va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:s

1. Kotler, P. (2012). Marketing Management. 14th Edition. Pearson Education.
2. Serafeim, G. (2019). Corporate Sustainability and Financial Performance.
3. Shiller, R. J. (2003). The New Financial Order: Risk in the 21st Century. Princeton University Press.
4. Abduqahhorov, J. (2019). O'zbekiston fond bozorida moliyaviy marketingning roli va istiqbollari.
5. G'ofurova, Z. (2020). Yashil iqtisodiyot va moliyaviy marketing: O'zbekiston fond bozorida yangi yondashuvlar.
6. Loeffler, D. (2018). Financial Markets and Investment Strategies. Springer.
7. Dube, L. (2016). Investor Trust and Confidence in Financial Markets. Journal of Financial Research, 35(4), 553-577.
8. Jensen, M. C. (2001). The Agency Costs of Overvalued Equity. Financial Management, 30(3), 5-19.
9. Hirshleifer, D., & Teoh, S. H. (2003). Herd Behavior and the Effect of Market Sentiment on Financial Decisions.
10. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). Principles of Corporate Finance. 13th Edition. McGraw-Hill Education.
11. Koller, G. (2019). The Investor's Guide to Financial Markets. Wiley.
12. Cheston, S., & Hiller, B. (2017). Building Trust in Financial Markets. Journal of Investment Strategies, 18(2), 82-95.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>